

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Bekasov D. G. Korrespondensiya, statya – janri publitsistiki. – M.: MGU, 1972. – 76 s.
2. Belaya G. A. Xudojestvenniy mir sovremennoy prozi. – M.: Nauka, 1983. – 190 s.
3. Abdimuratov A. Kaipbergenova T. Publitsistika: spetsifika, tematika, janrovo-stilisticheskiye osobennosti: Avtoref. dis. ... kand. filol. nauk. – Tashkent, 1997. – 21 b.
4. Dosmuhamedov X. N. Jurnalistning kasb odobi muammolari: nazariy metodologik tahlil (Mustaqillik davri o'zbek matbuoti faoliyati misolida. 1991-2008 yillar): Filol. fanlari doktori ... dis. avtoref. – Toshkent, 2008. – 40 b.
5. Yo'ldoshbekova S. S. Cho'lponning publitsistik va muharrirlik faoliyati: Filol. fanlari nomzodi ... dis. avtoref. – Toshkent, 2003. – 27 b.
6. Lukyanova L. V. "Bodalsya telyonok s dubom. Ocherki literaturnoy jizni" A. I. Soljenitsina kak xudojestvenno-publitsisticheskiy fenomen: Avtoref. dis. ... kand. filol. nauk. – Rostov n/D., 2002. – 19 s.
7. Xudoyqulov M. O'zbek hajviy publitsistikasining shakllanish tamoyillari (XIX asr oxiri – XX asr o'rtalari o'zbek matbuoti materiallari asosida): Filol. fanlari doktori ... dis. – Toshkent, 2001. – 293 b.
8. Qo'chqorova M. X. Hozirgi o'zbek adabiyotida esse janri: Filol. fanlari nomzodi ... dis. – Toshkent, 2004. – 134 b.

LEKSIK SATHDA QARAMA-QARSHILIK MUNOSABATINING AKS ETISHI XUSUSIDA

E. IBRAGIMOVA

FarDU dotsenti, f.f.n.

E. O'RINBOYEVA

FarDU katta o'qituvchisi, f.f.b.f.d., (PhD)

***Annotatsiya.** Maqolada antonim va uning turlari, antonimiya hodisasi orqali yuzaga chiquvchi qarama-qarshilik munosabatining leksik sathda ifodalanishiga doir ilmiy-nazariy qarashlar ilgari surilgan. Nazariya badiiy matndan olingan misollar yordamida dalillangan.*

***Kalit so'zlar:** antonim, lug'aviy antonim, antonimik juftlik, qarama-qarshilik munosabati.*

Antonimlik ikki til birligi orasidagi ma'no munosabati bo'lib, ikkisi birgalikda antonimik juftlikni tashkil qiladi. Ushbu munosabatda biri ikkinchisining

aksi bo'lgan voqelikni nomlaydi hamda ifodalaydi. Antonim juftlik hosil bo'lishi uchun ikkita mustaqil tushuncha ma'no jihatdan o'zaro qarama-qarshi bo'lishi kerak.

Antonimlarning o'zaro zid (qarama-qarshi) ma'noga ega so'zlar ekani deyarli barcha olimlar tomonidan e'tirof etiladi. Lekin ma'nodagi ana shu zidlik (qarama-qarshilik)ni tushunish, belgilash va talqin qilishda bir xillik yo'q. Shu sababdan zid ma'noli so'zlarning o'zaro antonimligi e'tirof etilsa-da, ikki so'zning antonimligini belgilashda o'zaro farqli fikrlar mavjud. Ushbu holatga nisbatan O'zbek tili leksikologiyasi [1; 251] kitobida ma'nodagi zidlik haqidagi qarash juda umumiy bo'lib, buni aniqlashtirish lozimligi ta'kidlanadi va muammoning yechimi sifatida antonimlikni aniq belgilashda komponentli tahlil asosida leksik ma'no (semema) strukturasini aniqlash muhimligi ko'rsatiladi.

Bilamizki, leksik ma'no (semema) ma'lum komponentlar (semalar)dan tashkil topadi. Antonim so'zlarning komponentli tahlilidan anglashiladiki, bunday so'zlar ma'nosida integral semalar bilan bir qatorda differensial semalar ham bo'ladi. Masalan: avlod va ajdod so'zlarini ma'no (semema) strukturasini tahlil qilamiz:

Avlod – “bir ota-onaning farzandlari; kelajak bo'g'in kishilari”; ajdod – “hozirgi avlodning ota-onasi, ota-bobolari, oldingi bo'g'in kishilari”. [2; 21]

*Kelar **avlod**, qayg'u tortsang,*

Meni qarg'a! Meni qarg'a!–

Bu dunyoni o'zim yoshga

Qorib, g'amdin qurib ketdim. (U.Azim “Bir gul eding...”)

*Semitlarning **ajdodlari** taxminan to'qqiz ming yil oldin Afrikadan Arabiston orqali Yaqin Sharqqa ko'chib o'tgan. (@AsanovEldar “Arablar haqida”)*

Misollardan ko'rinadiki, avlod va ajdod so'zlari ma'no (semema)lari strukturasida bir xil (bir ota-onadan tarqalgan) hamda o'zaro zid (kelajak-o'tmish) semalar mavjud. Xuddi shu qarama-qarshi semalari bilan avlod va ajdod so'zlari antonimik munosabat hosil qiladi.

Antonimlar, asosan, bir xil so'z turkumlari doirasida kuzatiladi: yaxshilik-yomonlik (ot), uzun-qisqa (sifat), ko'p-oz (ravish), keldi-ketdi (fe'l). Nutqda lug'aviy

antonimlardan foydalanish fikrni ta'sirli ifodalashda katta ahamiyatga ega. Antonimlar badiiy nutqda qo'llanilib, tazod yaratish uchun xizmat qiladi: Yaxshining ehsoniga yomonning boshi og'rir.

Antonimlar sifat so'z turkumi bilan ifodalanganda xususiyat (botir-qo'rqqoq, aqlli-ahmoq), hajm (uzun-qisqa, katta-kichik), holat (yosh-qari, issiq-sovuq), maza-ta'm (achchiq-shirin), shakl (egri-to'g'ri); ravish bilan ifodalanganda makon va masofa (nari-beri, uzoq-yaqin), temporallik (erta-kech, avval-keyin), holat (tez-sekin, arang; zo'rg'a-bemalol, dast), maqsad (ataylab, jo'rttaga-bexosdan, beixtiyor), miqdor (ko'p-oz) kabi ma'nolarni ifodalaydi. Ot so'z turkumi doirasida, asosan, mavhum otlar (boylik-kambag'allik, muhabbat-nafrat), qarama-qarshi tomonlarni bildiruvchi otlar (sharq-g'arb, shimol-janub), yil fasllari hamda sutkaning qarama-qarshi tomonlarini bildiruvchi (bahor-kuz, yoz-qish; kecha-kunduz, tong-shom) so'zlar o'zaro antonimik munosabat hosil qiladi.

Fe'l so'z turkumida ham antonimlar ko'p uchraydi. Bular, asosan, sifat va ravishlardan yasalgan fe'llardir: kegaymoq-toraymoq, sekinlashmoq-tezlashmoq, ko'paymoq-ozaymoq kabi. Bundan tashqari, qarama-qarshi harakatni bildiruvchi bormoq-kelmoq, kirmoq-chiqmoq singari tub fe'llar orasida ham o'zaro oppozitiv munosabat ko'zga tashlanadi.

Antonimiya munosabati ba'zi turkumlar, ya'ni son, olmosh, modal so'zlarda, umuman, mavjud emas.

Har qanday leksema antonimik munosabatga kirisha olmaydi: chelak, uy, javon... Qachonki, leksik ma'no o'z ziddiga ega bo'lsagina, antonimiya kuzatiladi: avval-keyin, adresat-adresant, aziz-xor, azob-rohat kabi.

Ifodalanishi jihatdan antonimlar har xil bo'lishi lozim: ayyor-sodda, alohida-birga kabi.

Ba'zan antonimlarning o'zagi bir xil, lekin yasovchi affikslari har xil bo'lishi mumkin: andishali-andishasiz, o'rinli-noo'rin kabi.

Ma'no jihatdan antonimlar o'zaro aloqador bo'ladi, ya'ni biri aytilganda ikkinchisi tasavvurda aniq gavdalanadi: arzon-qimmat, arxaizm-neologizm kabi. Demak, antonimiya ma'no jihatdan qarama-qarshilik va birlikka asoslanadi.

Demak, antonimiya munosabati hosil etuvchi lug'aviy birliklar:

- 1) biri ikkinchisini inkor etishi, yangini nomlash orqali inkor etishi lozim;
- 2) ma'nolar biri ikkinchisini istisno qilib turishi, qarama-qarshisini nomlashi kerak.

[3; 122] Masalan,

Bahslashmayman, tun, sen qarodan qaro.

Ammo farog'atga chorlaysan mudom,

*Sening quchog'ingda zavq olar **dono**,*

*Istisno deb bil, maqtansa **nodon**.*

Misoldagi dono va nodon so'zlari o'zaro antonim, lekin dono va ahmoq so'zlari o'zaro antonim bo'la olmaydi. Chunki *ahmoq* leksemasiga *aqlli* leksemasi antonim hisoblanadi.

Shuningek, ana-mana, shu-o'sha, u-bu olmoshlarining ma'nosidagi differensiallik qarama-qarshi yo'nalishni emas, balki bir yo'nalishda yotuvchi masofa oralig'ini ifodalaganligi uchun ular o'zaro antonim hisoblanmaydi.

Antonimiya leksemalarda leksik ma'noga, frazemalarda frazeologik ma'noga asoslanadi. Monosemantik leksema va frazema to'g'ridan-to'g'ri leksema va leksema, leksema va frazema, frazema va frazema antonimiyasi kuzatiladi. Masalan: aqliy-jismoniy kabi.

Polisemantik leksemalarda esa har bir semema o'z antonimiga ega bo'ladi: achchiq leksemasining bir sememasiga shirin leksemasining bir sememasi (achchiq anor-shirin anor), achchiq leksemasining boshqa bir sememasiga xushmuomala leksemasining bir sememasi (achchiq so'z-shirin so'z) antonim bo'lib keladi. Masalan:

Oshiq yuragimga pinhon sir oshkor,

*Ayon **shirin** so'zning **achchiq** tashxisi. (U.Azim, "Unutib boryapsan")*

Demak, antonimiyada ham asli leksemalar, frazemalar munosabati emas, balki sememalar munosabati nazarda tutiladi. Hozirgi o'zbek adabiy tili darsligida [3; 123]

antonimiya leksik ma'no anglatadigan quyidagi sememalar orasida voqelanishi ko'rsatib o'tilgan:

1) bosh to'g'ri ma'noli sememalar orasida: assimilyatsiya-dissimilyatsiya kabi.

2) bosh (to'g'ri) ma'noli semema bilan hosila (ko'chma) ma'noli semema orasida: beso'naqay-qoshiqday kabi.

3) hosila (ko'chma) ma'noli sememalar orasida: tuzi baland – tuzi past kabi.

Ideografik semalaridan, odatda, bir semasi zid, qolgan semalari aynan ikki leksema (leksosemema) biri ikkinchisiga nisbatan antonim deyiladi (yunoncha anti – zid, qarshi; onyma – ism). Bunday ma'no munosabati oppozitiv munosabat ham deyiladi (lotincha oppositive – zid qo'yish). [4; 78]

Tasviriy-ifodaviy vositalar va tilning maxsus leksik imkoniyatlari nihoyatda ko'p. Ular qatoriga sinonimlar va antonimlarni, arxaizm va neologizmlarni, jargonizm va professionalizmlarni, varvarizmlarni kiritish mumkin.

Badiiy asar tilidagi sinonim, antonim, omonim, ko'p ma'noli so'zlar kabi leksik birliklar ijodkorning badiiy-estetik maqsadini yuzaga chiqarishda qulay va sermahsul vosita hisoblanadi. “Antonimlar badiiy asar tilida muhim funksiyani o'taydi: tasvir obektini ichki ziddiyati bilan ochishga, voqea-hodisani bo'rttirib va yorqin qilib ifodalashga xizmat qiladi”. [5; 192]

Antonim semalar matn mazmunini boyituvchi asosiy birliklardan biri sanaladi. Ular matnda antitezani yuzaga chiqaradi. Masalan, “*kulayotgan kishining achchiq ko'z yoshi-yu, o'layotgan kishining tabassumiday sirlidir san'atning yuragi bilsang*”. (Ulug'bek Hamdam. San'at...). Ayniqsa, maqollarda antiteza muhim ahamiyatga ega bo'lib, quyidagi turlari uchraydi: antimetabola: *aqlsiz jahlli, jahlsiz – aqlli*; sinkrizis: *avval bahor, oxir xazon*; muqobala: *Ilmli – o'zar, ilmsiz – to'zar*; parallelizm: *Boy bo'lsang – kunda hayit, kunda to'y; yo'q bo'lsang – kunda hasrat, kunda o'y*. [6; 22]

Badiiy asarning ta'sirchanligi va ifodaliligini ko'rsatishda zid ma'noli so'zlar muhim vazifa bajaradi. Sharq adabiyotida juda qadim zamonlardan buyon tildagi bu ifoda imkoniyatidan keng foydalanib kelingan. Tilshunos A.Rustamov bu haqda shunday

yozadi: “Shoir uchun juda zarur bo’lgan san’atlardan biri tazoddir. Tazod san’atida badi’shunoslarning aytishicha, zid ma’noli so’zlardan foydalaniladi”. [7; 64]

Bu san’at Yevropa filologik an’anasida “antiteza” deb yuritilishi tilshunoslikka doir adabiyotlarda alohida ta’kidlanadi. [8; 49] Antiteza – (grek. antithesis– qarama-qarshi qo’yish) qiyoslanuvchi fikr, tushuncha obrazlarni qarama-qarshi qo’yishdan iborat stilistik figura. [9; 17] S.Karimov bu usulni shunday ta’riflaydi: “Badiiy adabiyot tilidagi antiteza usuli (mumtoz adabiyotda bu usul tazod deb yuritilgan) bir-biriga nisbatan qarama-qarshi ma’nolarni beradigan so’zlarni, iboralarni bayonda yonma-yon qo’llash orqali obrazlilikni keltirib chiqarishga asoslangandir”. [10; 220]

Nutqda ifodalilikni yanada oshirish maqsadida mazmunan biri ikkinchisiga zid tushunchalar, mantiqan biri ikkinchisini rad etuvchi fikrlar o’zaro qarama-qarshi qo’yiladi. Antiteza hodisasining paremiologik birliklardan bo’lgan maqollar tarkibidagi vazifasi alohida ahamiyatga ega.

Til yaratuvchisi bo’lgan xalq o’zaro qarama-qarshi narsa, belgi-xususiyat hamda harakatlarni o’zaro qiyoslagan, zidlagan va natijada maqollarda nutqiy antonimiya hosil qilingan.

Ma’lumki, o’zbek tilida *to’g’ri* va *egri* so’zlari o’zaro leksik antonimdir. Lekin o’zbek xalq maqollarida *to’g’ri* va *yomon* leksemalari nutqiy antonimiyasi ko’p kuzatiladi: To’g’riga balo yo’q, yomonda hayo yo’q. Sh.Turdimov mas’ul muharrirligi ostida nashr etilgan “O’zbek xalq maqollari” to’plamida birgina yomon so’zi yomonlikdan tashqari xudbinlik, tekinxo’rlik, egrilik, insofsizlik, dushmanlik, qo’rqoqlik, nodonlik, ilmsizlik, odobsizlik, baxillik, manmanlik, noshudlik, yolg’onchilik, sabrsizlik, bevofolik, ochko’zlik, nomussizlik, isrofgarchilik kabi ma’nolarni ifodalagan. [11; 3]

Lisoniy dalilga e’tibor beraylik:

“Kechqurun Qobil bobo aminning oldiga boradigan bo’ldi. Quruq qoshiq og’iz yirtadi, aminga qancha pul olib borsa bo’ladi? Berganga bitta ham ko’p, olganga o’nta ham oz”.(A.Qahhor, “O’g’ri”) Nutqiy parchadagi “Berganga bitta ham ko’p, olganga o’nta ham oz” maqolida antonimlik hodisasi aniq ko’zga tashlangan. beruvchi-oluvchi//

ko'p-oz) va bu o'rinda asar personajlari (Qobil bobo, amin)ning ijtimoiy ahvoli, ijtimoiy tabaqalashuvi aks etgan.

Qarama-qarshilik ikki til birligi orasidagi ma'no munosabati bo'lib, ikkisi birgalikda antonimik juftlikni tashkil qiladi. Ushbu munosabatda biri ikkinchisining aksi bo'lgan voqelikni nomlaydi hamda ifodalaydi. Antonimik juft hosil bo'lishi uchun ikkita mustaqil tushuncha ma'no jihatdan o'zaro qarama-qarshi bo'lishi kerak. Faqat turli o'zakli so'zlargina emas, balki bir xil o'zakdan yasalgan so'zlar ham o'zaro qarama-qarshi tushunchalarni bildirsa, antonimik qator hosil qilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Ўзбек тили лексикологияси. – Тошкент: Фан, 1981.
2. Раҳматуллаев Ш. ва б. Ўзбек тили антонимларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1989.
3. Турсунов У. ва б. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: Ўзбекистон, 1992.
4. Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o'zbek tili. – Toshkent: Universitet, 2006.
5. Бобоев Т. Адабиётшунослик асослари. – Тошкент, 2001.
6. Жумаева Ф. Полисемем лексемалар доирасидаги синоним ва антоним семалар тадқиқи. Ф.ф.б.ф.д. дисс.автореф. – Фарғона, 2018.
7. Рустамов А.Навоийнинг бадиий маҳорати. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1979.
8. Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. – Москва: Советская энциклопедия, 1969.
9. Ҳожиёв А. Лингвистик терминларнинг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1985.
10. Каримов С. Ўзбек тилининг бадиий услуби: Фил.фан.док.дисс. – Самарқанд, 1993.
11. О'zbek xalq maqollari. – Toshkent: Sharq, 2005.